

BO'LAJAK PEDAGOGIKA FANI O'QITUVCHILARIDA SUGGESTIV QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURATI

Shermatova Manzura Ikromjonovna

"University of Business and Science" NOTM Pedagogika va psixologiya kafedrasasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Bugungi kunda pedagogik ta'lif kontseptsiyasi avvalo o'qituvchi ijodiy qobiliyatini rivojlanirishni, ularni yuksak kasbiy – pedagogik mahorat cho'qquisiga ko'tarishni talab etmoqda. Bugun pedagogning pedagogik qobiliyati, e'tiqodi va o'quv jarayonini yaxshi bilishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy hayot uchun katta ahamiyatga ega. Pedagog jamiyatning a'zosi sifatida o'z mavqeyi va faol o'rmini o'quvchilarga namoyish eta olishi, uning jamiyat va o'z jamoasidagi o'rni, tanlagan kasbi, o'qitayotgan predmeti bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi, talab va qoidalarga amal qilishi, me'yor va qonunlarni surmat qilishi lozim. shuningdek, pedagogning bilimdonligi uning yangi bilimlar, o'zi tanlagan soxasidagi yangiliklarga nisbatan qiziqishida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: bo'lajak pedagogika fani o'qituvchilari, ta'lif jarayoni, suggestiv qobiliyat, ijtimoiy zarurat.

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ В РАЗВИТИИ ВСУГЕСТИЦИОННОЙ СПОСОБНОСТИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАУК

Шерматова Манзура Икромжоновна

НОУ «Университет бизнеса и науки» Преподаватель кафедры педагогики и психологии

Аннотация. Сегодня концепция педагогического образования требует, прежде всего, развивать творческие способности учителя, поднимать его на вершину профессионально-педагогического мастерства. Сегодня педагогические навыки, убеждения и хорошее знание образовательного процесса педагога имеют большое значение для социально-экономического развития и общественной жизни. Учитель должен уметь продемонстрировать учащимся свою позицию и активную роль члена общества, свое место в обществе и своем коллективе, выбранную профессию, глубокие знания предмета, который он преподает, должен соблюдать требования и правила, уважать нормы и законы. Также знания педагога отражаются в его интересе к новым знаниям и новостям в выбранной им области.

Ключевые слова: будущие учителя педагогики, образовательный процесс, суггестивность, социальная потребность.

SOCIAL-PEDAGOGICAL NEED FOR DEVELOPMENT OF SUGGESTIVE ABILITY IN FUTURE TEACHERS OF PEDAGOGICAL SCIENCES

Shermatova Manzura Ikromjonovna

"University of Business and Science" NSHEI Teacher of the Department of Pedagogy and Psychology

Abstract. Today, the concept of pedagogical education requires, first of all, to develop the teacher's creative abilities, to raise them to the peak of professional and pedagogical skills. Today, the pedagogue's pedagogical skills, beliefs and good knowledge of the educational process are of great importance for socio-economic development and social life. A teacher should be able to demonstrate his position and active role as a member of society to students, his place in society and his team, his chosen profession, and deep knowledge of the subject he is teaching. must follow the requirements and rules, respect norms and laws. Also, the pedagogue's knowledge is reflected in his interest in new knowledge and news in his chosen field.

Key words: future teachers of pedagogy, educational process, suggestive ability, social need.

Kirish. Bo'lajak pedagogika fani o'qituvchilari suggestiv qobiliyati, e'tiqodi va kasbiy ko'nikmalarini orqali o'ziga xos fikrlash tarzi bilan ajralib tura olishi shart. Chunki, pedagogika fani o'qituvchisi shunday noyob, qaytarilmas, andozasiz fikrlash sharoitidagina mustaqil fikrlashga o'rganadilar va fanni boshqa fanlardan ajrata oladilar.

Asosiy qism. Suggestivlik, bo'lajak o'qituvchi shaxsining rivojlanishida uning faolligi, mustaqil fikrlashi, mustaqil faoliyati, ya'ni mustaqil ta'lif va mustaqil ma'lumotlar olishi hamda o'zini o'zi tarbiyalashga xizmat qiluvchi jarayonlar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Demak, bo'lajak o'qituvchi shaxsining rivojlanishida muhim hisoblangan suggestivlik jarayonlari:

1. Gipnoz: chuqur yengillik yaratish va o'quvchining ongini o'zgartirish uchun gipnoz usullaridan foydalanish. Bu o'qituvchiga ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi va o'quvchini maqsadlarga erishishga undaydi.

2. Ijobiy dasturlash: talabaning ijobiy fikrlari va e'tiqodlarini mustahkamlash uchun ijobiy bayonotlar

va tasdiqlardan foydalanish. Bu o‘qituvchiga ijobiy muhit yaratishga va o‘quvchining o‘zini o‘zi qadrlashini oshirishga yordam beradi.

3. Metaforalar: ma’lum saboq yoki ma’nolarni etkazish uchun majoziy iboralar va hikoyalardan foydalanish. Metaforalar o‘quvchining ong ostiga ta’sir qilishning samarali usuli bo‘lib, ularga materialni yaxshiroq tushunish va eslab qolishga yordam beradi.

4. Ijobiy modellashtirish: o‘quvchilarini taqlid qilishga ilhomlanirish uchun o‘qituvchi tomonidan kerakli xatti-harakatlar va munosabatlarni ko‘rsatish. O‘qituvchilar o‘z o‘quvchilarini uchun namuna bo‘lishlari va ijobiy ko‘nikmalar va qadriyatlarni rivojlanirishga yordam berishlari mumkin.

5. Namoyish qilish: o‘quvchilarning o‘z maqsadlariga erishish va motivatsiyasini oshirish uchun aqliy tasvirlar va vizual tasvirlardan foydalanish. O‘qituvchilar o‘quvchilarga o‘zlarini muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatga erishishda tasavvur qilishlari uchun vizual mashqlar o‘tkazishlari mumkin.

Bo‘lajak pedagogika fani o‘qituvchisi kasbiy faoliyatidagi munosabatlar bilan bir qatorda, oilada, mahallada, ta’lim muassasasida va hamkasblar o‘rtasida vujudga keluvchi o‘zaro ta’sir jarayonini ham ta’lim va tarbiya jarayonlari komponenti sifatida inobatga olish zarur .

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, insonlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir inson psixologiyasi va shaxsiy xususiyatlarini rivojlanishining eng asosiy omili bo‘lib, mazkur jarayon ishtirokchilarining o‘zaro teng harakatlari shaxslararo aloqalarning vujudga kelish sharti hisoblanadi .

O‘zaro ta’sir jarayonida ishtirokchilar barcha yo‘nalishlar bo‘yicha teng darajada axborotlar bilan taminlanadi va ularda tushunchalar, shaxsiy fikrlar tug‘iladi. Bunday o‘zgarishlarning xususiyati – bu axborotlar almashinish yo‘li bilan o‘zaro ta’sir ko‘rsatish natijasida qo‘lga kiritilgan integrativ natijadir .

Tarbiyaviy munosabatlar bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini rivojlanirishga, ya’ni ko‘pgina holatlarda mustaqil ma’lumot, mustaqil ta’lim olish va o‘zini o‘zi tarbiyalashga xizmat qiladi. Tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida o‘qituvchining bilimi, muomala va muloqot madaniyati, kiyinishi, gavda harakatlari, qobiliyati, fan-texnika, san’at, tabiatga bo‘lgan munosabati hamda qiziqishi o‘quvchilarga va o‘qituvchilarning faoliyatiga, ya’ni fikrashi, tasavvuri, dunyoqarashining o‘zgarishiga hamda tafakkurining rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi .

Demak, tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari bo‘lajak o‘qituvchilarning ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyoji va o‘zi haqidagi ob’ektiv fikrlarining shakllanishi hamda rivojlanishiga, xatti-harakati va dunyoqarashining o‘zgarishiga, qiziqishining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi ta’limiy muhit sifatida xizmat qiladi.

Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida pedagogika fani o‘qituvchisidan suggestiv qobiliyatlar va yangicha munosabatlar talab etilar ekan. Uning bilimdonligi darajasi masalasi xam o‘ta muxim hisoblanadi.

Bular quyidagilar:

- ijtimoiy bilimdonlik - dars mobaynida sinf bilan samarali o‘zaro muomala shaklini tashkil eta olish, o‘quvchilar bilan til topish va sog‘lom ma’naviy muxitni xosil qila olish qobiliyati;

- uslubiy bilimdonlik - barcha bilimlarini, talaba o‘quvchilarga tushunarli, ravon tilda yetkaza olishi, ta’lim texnologiyasi va metodlaridan boxabarlik qobiliyati;

- kasbiy-siyosiy bilimdonlik - o‘z fani va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bo‘yicha chuqur va har tomonlama mukammal bilimlariga ega bo‘la olishi, o‘z ustida ishlash qobiliyatini o‘zida shakllantirgan bo‘lishi kerak.

Amaliyotda eng obro‘li, bilimdon pedagoglar birinchi navbatda insoniy bilimdonlik soxiblari bo‘lishadi va shundaylarni o‘quvchilar yaxshi qabul qilishadi. Chunki zamонави о‘qituvuvchi ko‘plab ma’lumotlarga ega, o‘quvchining psixologiyasi, talab-takliflarini aniq bilib til topisha olsagina pedagogik jarayonda katta yutuqlarga erishadi. Mana shu jarayonda bo‘lajak pedagogika fani o‘qituvchisidan suggestiv qobiliyatlar talab etiladi.

Ta’lim va tarbiya, o‘qitishda yuqori darajaga erishish va uni doimo takomillashtirib borish imkoniyatini ta’minlovchi san’at bo‘lib, o‘quvchilarga mehr qo‘ygan va o‘z kasbini sevgan har bir o‘qituvchining bajaradigan ishidir. O‘z ishining mohir ustasi bo‘lgan bo‘lajak pedagogika fani o‘qituvchisi - bu yuksak darajada madaniyatlari, o‘z fanini chuqur biladigan, fanning yoki pedagogikaning tegishli sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan pedagogik qobiliyat egasi, tarbiyalash va o‘qitish metodikasi hamda pedagogik texnikani mukammal egallagan mutaxassisidir. O‘qituvchilik dunyodagi eng qadimgi kasblardan biri bo‘lib, u bir qator muhim talablarga javob berishi kerak. Jumladan, pedagogik mahorat egasi bo‘lishi uchun qator sifatlarga ega bo‘lishi lozim.

O‘tgan asrning 70-80 yillarida o‘qituvchining xarakter xislatlari, pedagogik qobiliyatları, unda tarbiyachilik mahoratini tarkib toptirish shartlari chuqur o‘rganilgan. Jumladan, rus olimasi N.V.Kuzmina o‘qituvchilik faoliyatida pedagogik qobiliyatlarining o‘rnini va ularni tarkib toptirishga oid qator ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. U o‘z tadqiqotlarida pedagogik qobiliyatlarini: gnostik (bilishga oid), proaktiv (oldindan rejalashtirishga qaratilgan), konstruktiv, tashkiliy va kommunikativ turlarga ajratib, ularning har biriga chuqur psixologik

tasnif bergen. N.V.Kuzmina pedagogik qobiliyatning muhim alomatlari qatorida kuzatuvchanlikni ham

kiritadi, o‘qituvchining bu hislati o‘quvchining ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari kabi omillarni aniqlashga katta xizmat qiladi.

Psixolog olim F.N.Gonobolin pedagogik qobiliyatlarni tarkib toptirish bosqichlari, xususiyatlari va xossalari to‘g‘risida mukammal ma’lumotlar bergan. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, bo‘lajak pedagogika fani o‘qituvchisining suggestiv qobiliyatlarini quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkin. Suggestiv qobiliyat – ta’lim oluvchilarga ruhiy va emotsiyal-irodaviy ta’sir ko‘rsatish, ularni o‘z imkoniyatlariga ishontira olish mahoratida ko‘rinadi.

Pedagogik faoliyat aniq ko‘rinishda bo‘lsa, unda o‘qituvchi o‘qitish, tarbiyalash, rivojlantirish vazifalarini aniq ko‘ra oladi va ularni hal qilishga harakat qiladi. Bu jarayonda faoliyat aqlni ruhiy jihatdan tayyorlaydi, ta’sir ko‘rsatish vositalarini belgilaydi, natijalarni nazorat qiladi, tahlil qiladi, baholaydi va yangi vazifalarini belgilaydi. Bilimlarni o‘zlashtirish vositasida shaxsning o‘sishi ta’minlanadi, natijada jamiyat talabi va vazifalarini bajariladi. Buning uchun o‘qituvchi, avvalo, vaziyatni tushunishi, har bir talabaning o‘zlashtirish jarayonini, rivojlanib shaxs sifatida shakllanish darajalarining mezonini aniq ko‘ra bilish imkoniyatiga ega bo‘lmog‘i darkor. Bu o‘z navbatida o‘qituvchidan katta bilim, tajribalarni talab etadi. Bu faqat kasbiy faoliyatni to‘g‘ri belgilash orqali amalga oshadi. Shunga ko‘ra ta’lim muassasasi oldidagi muhim vazifalarini amalga oshirish uchun o‘qituvchiga pedagogik faoliyatni loyihalash zarurdir.

Yuqorida qayd etilgan fikrlarga asoslanib, pedagogik faoliyat o‘quv-tarbiya jarayonida shakllanadi va takomillashib boradi deb aytish mumkin. U ishbilarmonlik, zukkolik, layoqat va zehn vositasida taraqiy etadi. Shunga asoslanib, «faoliyat dunyoni o‘zlashtirishning birlinchi shartidir», -deb aytish mumkin. Ko‘rib o‘tganimizdek pedagogik mahoratning asosiy ob‘ekti – inson, uning aql – idroki, irodasi, ishonchi, tafakkuri, shuuridir. Bular yuksak darajada bo‘lishi, ilmga, uni egallaganlik darajasiga bog‘liq. Ilm esa tinimsiz mehnat, mashaqqat va azob – uqubatlar orqali qo‘lga kiritiladi.

Buning uchun o‘quvchilar ta’lim-tarbiysi bilan shug‘ullanadigan kishi, avvalo, o‘qituvchilik pozitsiyasiga ega bo‘lishi kerak, mazkur pozitsiya ijtimoiy jihatdan progressiv, shaxsiy jihatdan optimistik, zamonaliviy pedagogika, psixologiya, metodikaning ilg‘or g‘oyalarini o‘zida aks ettirishi lozim. Bu o‘z navbatida pedagogik jarayonga demokratik va insonparvarlik nuqtai navzardan yondashishni taqozo qiladi. Bunday yondashish faoliyat asosida amalga oshiriladi, faoliyat mahoratga yetkazuvchi bosh mezon bo‘lib hisoblanadi. Chunki o‘qituvchi mehnati uning pedagogik faoliyati, pedagogik mahorat, muloqoti va shaxsning birligidir.

Pedagogik faoliyat – o‘qituvchi mehnatining istiqbolini, texnologiyasini, vazifalarini, ta’sir ko‘rsatish yo‘llarining majmuidir. Pedagogik muloqot bo‘lsa – axloqiy-psixologik muhit, munosabatlar yig‘indisi bo‘lsa, pedagogning shaxsi – qiziqishlar, layoqatlar, ehtiyojlar, u yoki bu mehnat turiga yo‘nalganligi, uning idealini belgilovchi bir belgi bo‘lib hisoblanadi. Bu uchala tushuncha birgalikda pedagogik mahoratni tashkil etadi.

Pedagog bir paytning o‘zida ham shaxsning shakllanishi va qayta o‘zgarishiga ko‘maklashishi, ham uning aqliy, hissiy va jismoniy rivojlanish jarayonini boshqarishi kerak.

Suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- bilimlarni yaratish, ishlab chiqarish, ya’ni tadqiqotlar olib borish, ishlanmalar tayyorlash, ekspertizalar o‘tkazish, yangilikni izlash va h.k.;
- ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida bilimlarni nazorat qilish;
- dasrlik, o‘quv qo‘llanma va boshqa o‘quv-metodik materiallar, ilmiy maqolalar tayyorlash orqali bilimlarni tarqatish;
- o‘quvchilarni tarbiyalash, ularning shaxsini shakllantirish va rivojlantirish.

Suggestiv qibiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayon tarixan ikki ijtimoiy vazifa yuklatilgan - moslashtiruvchi (adaptatsiya)lik va rivojlantiruvchilik.

Tahlillar. Moslashtiruvchilik vazifasi o‘quvchi, tarbiyalanuvchilarni bo‘lajak ijtimoiy-madaniy vaziyatlarga, hayotga, faoliyatga moslashtirishni nazarda tutsa, rivojlantiruvchilik vazifasi - insonning shaxsini, individualligini va mahoratini rivojlantirishni ko‘zlaydi. Mazkur faoliyatning mazmun, mohiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilar ekanmiz, uni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Bunday faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, u o‘z mohiyatiga ko‘ra insonparvarlik, jamoaviylik va ijodkorlik xususiyatlarga yega.

Suggestiv qibiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonning insonparvarlik xususiyati uning inson tarbiyasiga, shaxsni shakllantirish va uni rivojlantirish funktsiyalarini amalga oshirish bilan bog‘liq holda bola tomonidan insoniyat yutuqlarini o‘zlashtirilishiga qaratilgan bo‘lib, shu orqali inson naslining davomiyligi, avlodlar vorisiyligi ta’minlanadi.

Suggestiv qibiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonning jamoaviylik xususiyati deganda shuni tushunish lozimki, ta’lim oluvchiga faqat bir o‘qituvchi yemas, balki o‘quvchilar jamoasi,

shuningdek, ona-onalar va boshqa guruhli va jamoaviy ta'sir manbalari o'z ahamiyatini ko'rsatadi.

Suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonning ijodiylik xususiyati uning belgilangan maqsadga yerishish yo'lida o'z imkoniyatlarini qay darajada ishga moslanganligi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham pedagogik jarayonning ijodkorlik xususiyati muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa. Xulosa qilganda, suggestivlik bo'lajak pedagogika fani o'qituvchisi uchun muhim qobiliyat sanalib uning ish faoliyatida juda zarur va ahamiyatlidir. Suggestiv qobiliyatning o'ziga xosligi mavjud va uni bo'lajak pedagog o'zida shakllangan Ushbu qobiliyatni rivojlantira olishi zarur. Nafaqat ish faoliyatidagi bo'lajak pedagogika fani o'qituvchisi balki kelajakda pedagog bo'lishni oldiga maqsad qilib qo'ygan har bir talaba buni bilishi kerak. Pedagogik qobiliyatlar qatorida suggestive qobiliyatni o'zida rivojlantirish va uni ish faoliyatida qo'llash tufayli o'quvchilarga ta'lim berishda yuksak natijalarni qo'lga kiritish mumkin.

Faydalanimanligi adabiyotlar

1. Березуцкая Ю.П. Подготовка организаторов образования к анализу управленческой деятельности на основе системы мотивационного программно-целевого управления: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Барнаул, 1999. – 17 с.
2. Майоров А.Н., Сахарчук Л.Б., Сотов А.В. Элементы педагогического мониторинга и региональных стандартов в управлении. – СПб., 1992. – 35 с.
3. Турғунов С.Т. Таълим муассасаси раҳбарлари бошқарув фаолияти самарадорлигининг назарий асослари // Касб-хунар таълими.– 2006. – № 1. – 55-222-6.